

FRANSUZ GAZETA MATNLARIDA AKRONIM VA ABBREVIATURALAR TAHLILI
(ЗАМОНАВИЙ ФРАНЦУЗ ГАЗЕТАЛАРИ МИСОЛИДА)

Мақсуда Жўраева

Бухоро давлат университети Француз филологияси кафедраси ўқитувчиси

m.m.jo'raeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Bugungi kunda sarlavhalar odatda barcha tillarda, shu jumladan, fransuz matbuotida ham noan'anaviy bo'lgan modellar asosida tuzilmoqda. Ushbu maqolada biz zamonaviy fransuz gazeta sarlavhalarini va ulardagi axborotlarni tahlil qildik va tahlil jarayonida gazeta sarlavhalarida juda ko'p qisqartma so'zlar va qisqartirilgan atamalarga duch keldik va bunday qisqartmalarni oson tushunish, qisqartmalardan foydalanish usullarining asosiy sabablarini o'rganish, hamda qisqartirilgan atamalarning mazmun-mohiyatini aniqlash, ularning semalarini to'g'ri anglashni maqsad qildik.

Annotation: Today, headlines are generally based on unconventional models in all languages, including the French press. In this article, we have analyzed modern French newspaper headlines and the information they contain, and in the process of analysis, we have come across a lot of acronyms and abbreviated terms in newspaper headlines, and it is easy to understand such abbreviations, study the main reasons for the use of abbreviations, and the meaning of the abbreviated terms. we aimed to determine the essence, to understand their meanings correctly.

Аннотация: Сегодня заголовки, как правило, основаны на нетрадиционных моделях на всех языках, включая французскую прессу. В этой статье мы проанализировали современные французские газетные заголовки и содержащуюся в них информацию, и в процессе анализа мы столкнулись с большим количеством аббревиатур и аббревиатур в газетных заголовках, и в таких аббревиатурах легко разобраться, изучите основные причины употребления аббревиатур и значение сокращенных терминов, мы стремились определить суть, правильно понять их значения.

Kalit so'zlar: sarlavha, akronim, abbreviatura, o'qish va imlo, bo'g'in, talaffuz qilish, axborot, mazmun.

Key words: title, acronym, abbreviation, reading and spelling, syllable, pronunciation, information, content.

Ключевые слова: заглавие, сокращенное название, аббревиатура, чтение и написание, слог, произношение, информация, содержание.

Aytish joizki insoniyat yashayotgan davr ularning axborotga qiziqishlari, uni qabul qilishga bo'lgan ehtiyoj, munosabatlariga qarab yuzaga keladi va rivojlanadi. Globallashuv jarayoni kechayotgan hozirgi kunda so'zlashuvda ham, matbuotda ham har kuni



innovatsiya bo'lmoqda hamda keskin burilish, jadal taraqqiyot hukum surmoqda, xohlaymizmi yo'qmi bu muayyan darajada miqdor va tezlik uchun sifatni qurbon qilishiga olib keladi va ommaviy axborot vositalarining eng faoli bo'lgan gazeta kunning barcha yangiliklarini yetkazish uchun har qanday narsani qisqartirib bo'lsa-da olib chiqishga harakat qiladi, aks holda uning o'rnini boshqalari egallashi ehtimoli ham yo'q emas.

Ushbu maqolada biz zamonaviy fransuz gazeta sarlavhalarini va ulardagi axborotlarni tahlil qildik va tahlil jarayonida gazeta sarlavhalarida juda ko'p qisqartma so'zlar va qisqartirilgan atamalarga duch keldik va bunday qisqartmalarni oson tushunish, qisqartmalardan foydalanish usullarining asosiy sabablarini o'rganish, hamda qisqartirilgan atamalarning mazmun-mohiyatini aniqlash, ularning semalarini to'g'ri anglashni maqsad qildik.

Departament, korporatsiya, agentlik, tashkilot, birlashma, qo'mita, idora, ekspert-komissiya va boshqalar, ularning har biri o'z qisqartmasi bilan birga keladi, bu esa darhol noto'g'ri tushunishga yoki ko'pincha turli qisqartmalarni umuman tushunmaslikka olib keladi. Bu o'rinda esa, albatta, tilshunoslikning faol lisoniy birliklari bo'lgan akronim va abbreviaturalar, ya'ni qisqartirilgan so'zlarning o'z-o'zidan paydo bo'lishi tabiiy hol bo'ladi.

Dastavval, fransuz gazetalarining nomlarini qisqartirilishi, ya'ni, akronimlar haqida fikr yuritsak. Dunyo tillari leksik fondida qisqartmalar juda ham keng tarqalgan bo'lib, ularning qo'llanishida bir qancha o'ziga hos jihatlari mavjud. Gazeta sarlavhalarining qisqartmasi to'g'risidagi “Nashrlar sarlavhalari va sarlavhalarda so'zlarni qisqartirish to'g'risida”gi qoidalar ISO (**I**nternational **O**rganization for **S**tandardization-Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti) ning 1997 yil 4 normalariga to'g'ri keladi.

ISSN xalqaro tashkiloti esa turli tillar uchun qisqartirilgan so'zlar ro'yxatini yuritadi va yangilaydi. Bunda internetda qidirish mumkin bo'lgan atamalar ro'yxatidan istalgan qisqartirilgan sarlavhani yaratish mumkin, faqatgina *bitta so'zdan iborat sarlavhalar* qisqartirilmaydi.

Akronimlar abbreviaturalarning bir turi bo'lib, asosan, ikki, uch so'zning birikishidan hosil bo'ladi va faqat bosh harflarni o'z ichiga oladi. Bunday qaraganda akronimlar allaqachon so'z sifatida shakllangan, desak ham bo'ladi. Akronimlar bosh harflardan tuzilgan atama so'z kabi talaffuz qilinadi. Masalan:

1. ONU (Organization Nations Unies). Bu harfdan keyin harf talaffuz qilinadigan akronimdan farq qiladi.

2. SNCF, PMU va boshqalar. U qisqartmani tashkil etuvchi va oddiy so'z kabi talaffuz qilinadigan qisqartirilgan bosh harflardan tashkil topgan atamani bildiradi.

3. SMIC (Salaire Minimum Interprofessionnel de Croissance), CAF (Caisse d'Allocations Familiales) yoki RSA (Revenu de Solidarité Active). Shuni kuzatish mumkinki, bu o'rinda so'zning harflari yozilmaydi, lekin to'liq talaffuz qilinmoqda.

4. Qisqartma faqat bosh harflardan iborat bo'lsa, bosh harflar bilan yoziladi. Agar u bo'g'inlarni o'z ichiga olsa, u kichik harflarda yozilishi mumkin, birinchi harf katta harflar bilan yozilganligini ko'rish mumkin: Benilux, Insee va boshqalar.



Fransuz mashhur kundalik gazetasi Le Figaro (Le Figaro Mercredi 20 Avril 2022) sarlavhalarida uchraydigan akronimlarni tahlil qilamiz:

1. *RN peine à dissiper le flou sur le voile*
2. *Nouvelles craintes sur les centrales d'EDF*
3. *Société générale rebaptise sa banque de détail SG*
4. *Avec le club de basket de Pau, CSG lance l'actionnariat 3.0*
5. *Le PDG de Disney sous pression après une loi en Floride*

Ushbu misollarda ko'ramizki, RN, EDF, SG, CSG, PDG kabi akronimlar gapning boshida, o'rtasida va oxirida ham kelgan.

Birinchi misolda RN (Rassemblement National) “parda” yoki niqob ostidagi tumanni ya'ni, mavhumlikni tarqatishga qiynalmoqda. Ikkinchi misolda EDF – (Electricité de France) Fransiya elektr energiyasi haqida gap borsa, uchinchi misolda esa Societe Generale - Yevropadagi eng yirik moliyaviy guruhlardan biri, diversifikatsiyalangan universal bank modeliga amal qiladigan Société générale haqida so'z bormoqda, to'rtinchi misolda CSG - Counterpointe Sports Group (Groupe Sportif Contrepointe) ingliz tilidagi akronimlar qo'llanilganligini kuzatamiz.

Shuningdek, so'z kabi talaffuz qilinadigan va harfdan keyin harf talaffuz qilinadigan akronimlarni quyidagi zamonaviy fransuz gazeta sarlavhalarida ham uchraganligini ko'rish mumkin:

- (1) *A la MJC, une fin de semaine tronquée entre annulation et report... (La Dépêche du Midi Jeudi 6 Janvier 2022)*
- (2) *Le CSA étend ses pouvoirs au numérique. Monde Mardi 4 Janvier 2022*
- (3) *Vive controverse entre l'IMA et l'intelligentsia arabe. (Le Monde Mardi 14 Decembre 2021)*
- (4) *Le rapport qui accable la SNCF et l'État. (Le Parisien Jeudi 10 Mars 2022)*
- (5) *Divergences de fond sur le RSA. (Le Parisien Mercredi 20 Avril 2022)*
- (6) *L'OM envoie un message. (L'Equipe Lundi 14 Mars 2022)*
- (7) *Allô, Angers ? Le SCO, qui a subi hier sa septième défaite de suite après une nouvelle boulette de son gardien, ne répond plus. (L'Equipe Lundi 14 Mars 2022)*
- (8) *Comment les candidats à l'Élysée cherchent à se concilier la CFDT. (Les Echos 11 12 Mars 2022)*

Qisqartmalarni o'rganishdagi muhim muammolardan biri ularni og'zakilashtirish masalasi turadi.

Fransuz tilida qisqartmalarni talaffuz qilishning ikkita asosiy usuli mavjud: o'qish va imlo. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, og'zaki o'qish uchun o'qishga murojaat qilish imkoniyati yoki majburiyati qisqartma, xususan, ma'lum bir qator rasmiy shartlarga bog'liq bo'ladi.

Birinchidan ular orasida "bo'g'in" bor. Ya'ni, qisqartma o'qilishi uchun u kamida bitta unli yadroni o'z ichiga oladi: (ikkinchi misolda Le CSA, uchinchi misolda l'IMA, beshinchi misolda Le RSA, oltinchi misolda L'OM va yettinchi misolda Le SCO) va undagi undoshlar



ketma-ketligi yaxshi shakllangan boshlanishlarni tashkil qiladi. Aynan shuning uchun biz zamonaviy fransuz matbuotining qisqartmalarini og‘zakilashuv tamoyillarga bo‘ysunmaydigan ba‘zi qisqartmalarini tahlilga tortdik. Masalan: birinchi misolda la MJC va to‘rtinchi misolda la SNCF, hamda, sakkizinchi misolda la CFDT - og‘zakilashuv tamoyillarga bo‘ysunmaydigan qisqartmalardir. Bugungi kunda qisqartmalardan foydalanish “urfga aylangan” va ularni ko‘plab gazeta sarlavhalari va mantlarida o‘qib kuzatish mumkin.

Ma‘lumki qisqartirish ya‘ni italyancha *abbreviatura* - lotincha "brevis -qisqa" - so‘z yoki iboraning qisqartmasidan hosil bo‘lgan va boshlang‘ich harflarning alifbo tartibida nomi yoki unga kiritilgan so‘zlarning boshlang‘ich tovushlari bilan o‘qiladigan so‘z¹⁹ bo‘lib bu qisqartirish - berilgan tushuncha yoki uning qismlarini tashkil etuvchi so‘zlarning birinchi harflaridan hosil bo‘lgan qisqartmadir.

Abbreviaturalar so‘zning soddalashtirilgan, qisqartirilgan ko‘rinishini ifodalaydi, ma‘noni anglatib turuvchi belgi esa o‘zgarmay qoladi. Uzun so‘zlarning qisqarishi, ko‘pincha bir yoki bir nechta bo‘g‘inlar tushirib qoldirilib, ikki yoki uchta harf saqlab qolinadi. Masalan: bac(calauréat), fac(ulté), prof(esseur), perm(ission) va hokazo.

Xuddi shunday, xushmuomalalik yoki muloyimlik, iltifot ma‘nosini ifodalaydigan so‘zlardan qisqartma hosil qilinganda ko‘plik belgisini oladi (so‘z oxirida “s” harfini qo‘shish bilan yoki hafri ikkilantirish bilan) masalan: *Mmes et MM. les professeurs (mesdames et messieurs)*.

Bundan tashqari *apakopa* (so‘z oxiridagi tovushlarning tushib qolishi) qisqartmalari (kundalik tilda so‘zlarga aylangan) ham ko‘plikda qo‘llaniladi. Masalan: *Les Éts. scolaires sont font partie du service publique (établissements)* yoki *Il vend des autos*.

Abreviaturalar ot, son, sifat va ravishlarda anchagina qo‘llanilganligini asoslash mumkin. Ular franuz tilida gazetalarda, sarlavhalarda, ayniqsa, sarlavha matnlarda va maqolalarda ko‘p uchraydi hamda ularning ayrim qisqartmalarini jadval asosida ko‘rsatish mumkin:

<i>Les nombres - Sonlar</i>	<i>Les adjectifs- sifatlar</i>	<i>Les noms - Otlar</i>	<i>Les adverbes - Ravishlar</i>
<i>1er - premier</i>	<i>Br - branche</i>	<i>Ann - annuel</i>	<i>Av-avant</i>
<i>2^e - deuxième</i>	<i>Contr - contraire</i>	<i>Apt-appartement</i>	<i>plrs- plusieurs</i>
<i>3^e - troisième</i>	<i>p/o- par ordre</i>	<i>bio- biologique</i>	<i>mtn- maintenant</i>
<i>7bre - septembre</i>	<i>tq - tel que, telle que</i>	<i>chap-chapitre</i>	<i>pcq- parceque</i>
<i>8bre - octobre</i>	<i>bcp-beaucoup</i>	<i>msg-message</i>	<i>sv- pour</i>
<i>9bre - novembre</i>	<i>gd-drand,e</i>	<i>svc- service</i>	<i>qd- quand</i>
<i>10bre - decembre</i>	<i>p.ex.-par exemple</i>	<i>vol-volume</i>	<i>ts- tous tt-tout</i>
<i>K7-cassette</i>	<i>qcq-quelconque</i>	<i>art- bur-bureau</i>	<i>ss-sans,</i>
<i>md-milliard</i>	<i>qq-quelque</i>	<i>art- article</i>	<i>suis, sous</i>
<i>sec- seconde</i>	<i>qqch quelque chose</i>	<i>bac- baccalauréat</i>	<i>pdt-pendant</i>
<i>XXe - vingtième</i>	<i>qqn-quelqu’un</i>	<i>dir- directeur</i>	<i>jms-jamais</i>
		<i>fin-finance</i>	<i>dsl-désolé</i>
			<i>cdmt-cordialement</i>

19 Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. – М. : Большая российская энциклопедия, 2004-2017.



		<i>fl-fleuve</i> <i>publicité</i>	<i>pub-</i>	
--	--	--------------------------------------	-------------	--

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinadiki, arab yoki rim raqamlari bilan ifodalanadigan tartib sonlari yonida ye harfi bilan qisqartiriladi.

Exemple: *Entre Londres et Athènes, l'éternelle querelle du Parthénon. Depuis quarante ans, la Grèce demande avec constance la restitution de la frise athénienne déposée au tout début du XIXe siècle sur ordre de l'ambassadeur d'Angleterre. Mais pour le British Museum, pas question de s'en sépare...*

Le Figaro - mardi 4 janvier 2022.

Aytish lozimki, tartib raqamining avvalidagi birinchi- premier, première bundan mustasno, 1^{er} shaklida ifodalanadi, ikkinchi-deuxième, uchinchi-troisième – esa 2^e, 3^e tarzida qisqartiriladi:

Le CSA (acronyme) étend ses pouvoirs au numérique.

Le 1er janvier, le Conseil supérieur de l'audiovisuel devient l'Autorité de régulation de la communication audiovisuelle et numérique. Le Monde - mardi 4 janvier 2022.

Nazarimizda, atama keng ma'noda abrègement - qisqartirish, raccourcissements – kamaytirish, raccourcis – ixchamlashtirilgan, réductions – soddalashtirilgan kabi qisqartirilgan natijalarni tushuniladi. Shuningdek, tor ma'noda aytadigan bo'lsak, les sigles – qisqartirilgan belgi, les acronymes –harfma-harf talaffuz qilinmaydigan qisqartma belgi, les abréviations –et les tronctions – bo'laklash kabi jarayonlarga ajratish mumkin.

Demak ta'kidlash joizki, fransuz tilida qisqartmalarni talaffuz qilishning ikkita asosiy usuli mavjud: o'qish va imlo. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, og'zaki o'qish uchun o'qishga murojaat qilish imkoniyati yoki majburiyati qisqartma, xususan, ma'lum bir qator rasmiy shartlarga bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Wagner, R.L. & Pinchon J. Grammaire du français classique et moderne. Paris: Hachette, 1972. 1 vol. - 648 p.;
2. Flaux N. La grammaire: PUF, 1993. - 125 p.;
3. Gary-Prieur, M.N. Grammaire du nom propre. Paris: Presses Universitaires de France, 1994. – 252 p.;
4. Iliya, L. I. Ocherki po grammatike fransuzskogo yazыka / L. I. Iliya. - M.: Vyssh. shk., 1970. - 211 s.;
5. Sayfullayev Baxshillo Nematulloevich. (2023). FRANSUZ TILIDA O'ZLASHTIRMA NUTQ VA UNING IFODA USULLARI. Innovative development in educational activities, 2(6);
6. Kuldashova, N. B. (2021). THEORETICAL THINKINGS ABOUT MODERN LINGUISTICS AND TERMINOLOGY. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(2);



7. Ostonovich, O. B. (2020). Specific features of phraseological units. International Journal on Integrated Education, 3(11) ;

8. Narzullayeva, D. (2023). PSYCHOLOGICAL SUPPORT OF PROFESSIONAL WELL-BEING OF EMPLOYEES. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 29(29) ;

9. Mukhammadovna, J. M. (2016). The national, cultural and linguocognitive peculiarities of modality of the french and uzbek fairytales. GIF. LangLit. An International Peer-reviewed Open Scess Journal, 3(2) ;

10. Jurayeva M.M. Газета ва унинг сарлавҳаларидаги ўзига хос хусусиятлар //Multidisciplinary Scientific Journal. VOL. 1, ISSUE 7, March, 2023.

